

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O'RXUN OBIDALARINING O'RGANILISHI

Rustamov Mirjalol Azamat o'g'li

*Samarqand davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida o'rxun obidalarining o'rganilishi, Turkiyshunoslik yoki turkologiya-turkiy tilda gaplashuvchi xalqlarning tili, etnografiyasi, tarixi, og'zaki adabiyoti va madaniyatini tadqiqot qiluvchi soha, Obidalar turkiy tilli mamlakatlardan Turkiya va Qozog'istonda to'liq o'rganilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit So'zlar:** *O'rxun, uyg'ur, manixey, «Devoni lug'atit turk», Tal'at, turkolog, turk-run.*

**Abstract:** *In this article, the study of Orkhon monuments in Uzbek linguistics, Turkic studies or Turkology is a field that studies the language, ethnography, history, oral literature and culture of Turkic-speaking peoples, Monuments from Turkic-speaking countries to Turkey and Kazakhstan information about the study of*

**Key Words:** *Orhun, Uighur, Manichean, "Devoni Lugatit Turk", Tal'at, Turkologist, Turkic-run.*

**Аннотация:** *В данной статье изучение орхонских памятников в узбекском языкознании, тюркологии или тюркологии представляет собой область, изучающую язык, этнографию, историю, устную литературу и культуру тюркоязычных народов, памятники от тюркоязычных стран до Турции и Казахстан информация об изучении*

**Ключевые Слова:** *орхун, уйгур, манихей, "девони лугатит тюрк", тал'ат, тюрколог, тюркский рун*

### KIRISH

Turkiyshunoslik yoki turkologiya-turkiy tilda gaplashuvchi xalqlarning tili, etnografiyasi, tarixi, og'zaki adabiyoti va madaniyatini tadqiqot qiluvchi soha hisoblanadi. Sharqshunoslik ilmining xususiy sohasi. Turkiyshunoslik sohasi ilmiy aloqaga dastlab O'rxun-Enasoy (O'rxun yozma yodgorliklari, Enasoy yozma yodgorliklari), eski uyg'ur, manixey va boshqa yozma yodgorliklarning o'rganilishiga bog'liq shaklda rivojlangan. Bu yozuv yodgorliklari Markaziy Osiyo va boshqa ko'plab hududlarni makon qilgan qadimgi turkiy xalqlarning hayot tarzini, tilini, adabiy yodgorliklarini, ma'naviy va ma'rifiy madaniyatini o'rganishda asosiy manbalar hisoblanadi. Bundan so'ng turkiyshunoslikda O'rta asrdagi arab, fors, turkiy tilda yozilgan tarixiy yilnomalarni, filologik va geografik asarlarni o'rganish rivojlana boshladi. Turkiyshunoslikning fan sifatida rivojlanishida XIX-XX asrlarda o'rganila boshlagan adabiy matnlar bilan filologik tadqiq qilingan asarlarning o'rni beqiyos. Bular qatoriga turkiy xalqlar to'g'risida lingvistik, tarixiy etnografik, folklor manbalari asosida yaratilgan asarning eng dastlabkisi M.Koshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» nomli lug'ati hisoblanadi. Shundan keyin bir qator asarlar o'rganilib, natijada turkiyshunoslik ilmining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Yozma yodgorliklar tadqiqi esa mazkur sohani yanada mustahkamlab berdi.

### ADABIYOTLAR VA METADALOGIYA

Obidalar turkiy tilli mamlakatlardan Turkiya va Qozog'istonda to'liq o'rganilib kelinmoqda. Turkiyada Najib Osim, Husayn Namiq Orkun, Ahmet Jevat Emre, Ahmet Temir, Usmon Nedim Tuna, Omeljan Prisak O'rxon, Muharrem Ergin, Usmon Fikri Sertkaya, Kazim Mirshan singari olimlar o'rganishgan. Turkiyadagi O'rxun bitiklari haqidagi ilk kitob 1924 yilda turkolog Najib Osim tomonidan usmonli turk tilida yozilgan va «O'rxun yodgorliklari» nomi bilan nashr etilgan. Najib Osim mazkur asarni Radlov va Tomsen asarlaridan foydalangan holda tayyorlagan.

Husayn Namiq O'rkun tomonidan Turkiyada ikkinchi marta «O'rxun bitiklari» kitobi nashr etilgan. To'rt jildda nashr etilgan ushbu asarning birinchi jildi Kultegin va Bilga xoqon bitiklariga bag'ishlangan. O'rkun Tomsen nashrini misol qilib olgan, uning keyingi tuzatishlari va Mahmud Qashg'ariy lug'atidan foydalangan. O'rkun Tomsenning ba'zi o'qishlarini to'g'rilamoqchi bo'lsa-da, bu unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan va Tomsen to'g'ri o'qigan ba'zi so'zlarni tuzatishga urinib, yangi xatolarga yo'l qo'ygan.

Tal'at Tekin-1927 yilda Ankarada tug'ilgan. Istanbul universitetining Adabiyot fakulteti, Turk tili va adabiyoti bo'limini tugatgan. «A grammar of orhon Turkic» nomli, 419 betdan iborat asari 1968- yilda Blumingtonda nashr qilingan. 1988 yilda «Orhon yazitlari» nomli 200 varaqli kitob nashr qilinadi. 1993 yilda «Irq bitik», 1995 yilda «Orhon yazitlari, Kultegin, Bilge qağan, Tönyuquq» nomli asarlarini yaratadi. Tal'at Tekin rahbarligida ham turk tili va turkiyshunosligi bo'yicha doktorlik dissertasiyalari yoqlangan. Tal'at Tekin o'zi bevosita ustozlik qilgan shogirdlaridan tashqari turkologiyaga qiziquvchi har bir yoshning ustozini hisoblanadi.

Yana bir taniqli turkolog, 1983 yilda Osmon Fikri Sertkaya Kultegin va Kulicho'r bitiklarida tez-tez qo'llaniladigan «oplayu tegmek» jumlasini haqida kichik, ammo qiziqarli maqola chop etdi. Osman Fikri Sertkaya 1946-yili 11-avgustda Adanada tug'ilgan. Istanbul universiteti, Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti mutaxassisligini tugatgan. Osman Fikri Sertkayaning turkiy-run matnlarga oid maqolalaridan biri 1974 yilda «Ko'kturk tarixi masalalari: Kulteginmi, yoki Ko'lteginmi?» «Turk adabiyoti» jurnalida bosilib chiqqan. 1976 yilda «Islami devrinin uygur harfli eserlerinden sivaç-ül kulub» nomli doktorlik dissertasiyasini yozgan.

O.F.Sertakaya 1966-2013 yillar oralig'ida Ko'kturk, uyg'ur, qoraxonli, qipchoq, chig'atoy, ilk usmonli va hozirgi uyg'ur turkiylari davrlarining tili, adabiyoti, tarixi, san'ati, xalq og'zaki ijodi va boshqa ko'plab sohalarga tegishli 400dan ortiq maqolalar yozgan.

## NATIJALAR

Toshbitiklarni qozoq olimlaridan G.Aydarov, A.Baytursinuli, Q.Jubanov, I.Kengesbayev, N.Sauranbayev, M.Balaqayev, S.Amanjолоv, R.Sizdiq, Sh.Saribayev, R.Amirov, A. Qurishjanov, Q. Sartqojaulı va boshqa tadqiqotchi olimlar o'rganishgan. Shular orasida yarim asr vaqtini ilmiy sohaga bag'ishlangan G.Aydarov turkiyshunoslikka juda katta hissa qo'shdi. G.Aydarov shundan o'n asr qadimiyroq tarix-O'rxun-Enasoy, Kultegin, To'nyuquq yozuvlarini kelajak avlodga hech o'zgarishsiz yetkazishdagi xizmatlari katta bo'ldi. G.Aydarov eng avvalo, qozoq xalqining fidoyi o'g'lonlaridan biridir. Filologiya fanlari doktori, professor, Axmet Bektursinuli nomidagi tilshunoslik institutining bosh ilmiy tadqiqotchisi Telg'oja Januzaqov: - «G.Aydarov tadqiqotchi olimdir. Olim umr bo'yi faqat bir sohada, ya'ni tilshunoslik sohasida faoliyat olib borgan. Turkman, ozarbayjon, tatar tilini o'zlashtirgan. U qozoq tilshunosligida O'rxun-Enasoy, Kultegin, To'nyuquq yozma yodgorliklarini dastlabkilar qatorida qo'lga olib,

ilmiy jihatdan o'rganan olim»- ekanligini ta'kidlaydi. G.Aydarov-1921 yil Mangistog' viloyati, Mangistog' tumani, Telman posyolkasida tavallud topgan. 1959 yili «To'nyuquq yodgorliklarining tili va hozirgi ayrim turkiy tillar bilan munosabati» nomli nomzodlik dissertasiyasini, 1974 yili «Qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy va Talas yodgorliklarining leksikasi» mavzusida doktorlik dissertasiyasini Boku shahrida ozarbayjon tilida himoya qiladi. 250 dan ortiq ilmiy-tadqiqot ishlari, 10 ta monografiya va oliy tadqiqot muassasalari o'rganuvchilari uchun darsliklar muallifidir. Ilmiy ishlarining barchasi qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni o'rganishga bag'ishlangan. 1966 yili «Yazik orxonskogo pamyatnika Bilgeqag'an», 1971-yili «O'rxun yodgorliklarining tili», 1986 yili «Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili», 1990 yili «O'rxun yodgorliklari matni». 1991 yili «Eski uyg'ur yozma yodgorliklarining tili» va boshqa ko'plab asarlari nashr qilingan. 2001 yili 1 martda vafot etgan. G.Aydarovning «Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili», asarida kitobning birinchi bo'limiga aloqador quyidagicha asoslama beradi: «qadimgi turkiy tilda yozilgan obidalarni yaratilgan joyiga qarab tasniflashning nazariy jihatlari hali aniqlanmaganligi uchun, ba'zi chalkash jihatlar ham mavjud. Bu safar qadimgi turkiy tilda yozilgan obidalarni guruhlash uchun biz har joyda aytilayotgan, yozilayotgan taxminlarning bittasinigina, umunjahon sharqshunoslarining XXII Kongressi xulosasiga mos ravishda butunjahon turkologlari birgalikda yozgan «Turk filologiyasi asoslari» da berilgan tasnifdan foydalandik». Demak, G.Aydarov asarda yodgorliklar tili xususida mavjud nazariy bilimlarni qiyosan tahlil qilgan holda umumlashma ma'lumotlar berishga harakat qilgan.

O'zbek tilshunosligida qadimgi turk-run yozuvi yodgorliklarini o'rganish borasidagi ishlar o'tgan asrning 60-yillarida kuchaydi. Unga qadar XI-XIII hamda XIV-XVI asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklarni o'rganishga katta e'tibor qaratildi. 1940-1960-yillarda O'zbekiston hududidan turk-run xatidagi ilk yodgorliklar topilgani buning sabablaridan biri bo'ldi. Shunga qaramay, dastlabki bosqichda o'zbek turkologlari tomonidan qadimgi turk-run yozuvining eng katta va yaxshi o'rganilgan yodgorliklari - O'rxun va Yenisey bitiktoshlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Xususan, Sh. Shukurovning o'zbek tilida fe'l tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarida O'rxun va Yeniseydan topilgan turk-run bitiklari, shuningdek, uyg'ur xatidagi yodgorliklariga murojaat etildi.

1970-yillarda nashr etilgan tadqiqotlardan M. Mahmatqulovning «Analiticheskiy sposob slovoobrazovaniya v yazıke drevnetyurkskix pamyatnikov» dissertasiyasini hamda G'. Abdurahmonov va Sh. Shukurovlarning «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» kitobini tilga olib o'tish kerak. Bundan tashqari, 1972 yili O'rxun bitiktoshlari hamda Yenisey matnlarining bir qismi A. Qayumov tomonidan tarjima qilinib, «Qadimiyat obidalari» to'plamida nashr etildi.

1982 yili qadimgi turkiy til bo'yicha o'zbek tilidagi birinchi darslik - G'. Abdurahmonov va A. Rustamovlar hammuallifligidagi «Qadimgi turkiy til» yaratildi. I. Qo'chqortoyev va B. Isabekovlarning 1984 yili nashr qilingan «Turkiy filologiyaga kirish» o'quv qo'llanmasida ham qadimgi turkiy tilning qisqacha tarixi va tavsifi bayon etildi. 1989 yilda turkiy tillar tarixining qadimgi davriga bag'ishlangan yana bir o'quv qo'llanma - N. Abdurahmonovning «Qadimgi turkiy til» kitobi nashr etildi.

## XULOSA

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turkologik tadqiqotlar soni ko'payib bordi. 1990-yillarda mamlakat hududidan yangi turk-run bitiklarining topilishi bilan ularning o'qilishi va

talqini yuzasidan maqolalar chop etildi. 2002 yilda N. Rahmonov B. Matboboyev bilan hammualliflikda bu yozma yodgorliklarga bag'ishlangan "O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari" nomli risolani e'lon qildi. Unda Farg'ona vodiysidan 1960-1990-yillarda topilgan turk-run yozuvi namunalari yangicha o'qilishlari keltiriladi. Xususan, N. Rahmonov Quva matnlaridan 3 tasining deshifrovkasini keltiradi, Munchoqtepa nekropoli hamda Lo'mbitepa manzilgohidan chiqqan yozuvlarga to'xtalib o'tadi. Bundan tashqari, kitobdan O'rxun-Yenisey bitiktoshlaridagi ba'zi munozarali o'rinlar tahliliga bag'ishlangan boblar o'rin olgan. Kitobda keltirilgan ba'zi talqinlar bahsli bo'lishiga qaramay, u O'zbekiston hududidan aniqlangan turk-run bitiklariga bag'ishlangan ilk maxsus tadqiqot sifatida diqqatga sazovor.

Q. Sodikov qalamiga mansub "Ko'k turk bitig'lari: matn va uning tarixiy talqini" nomli kitobning birinchi bobida O'zbekiston hududidan topilgan ba'zi bitiklar tavsiflanadi, ularning o'qilishi bo'yicha mulohazalar keltiriladi. Fanda yaxshi ma'lum bo'lgan Lo'mbitepa yozuvidan tashqari, Qashqadaryo viloyatining Podayotog' va Chashmimiron qishloqlari hududidan topilgan yangi bitiklar tadqiq etiladi.

2008 yilda N. Rahmonov va Q. Sodikovlarning hammualliflikdagi kitobi - "O'zbek tili tarixi" o'quv qo'llanmasi chop etildi. Unda qadimgi turkiy til grammatikasining yangi tavsifi keltirildi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Erhan Aydin. «Osman fikri Sertkaya ve turk runic metinleri» Electronic journal of oriental studies. Vol. IX, No.10. Academia.
2. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. - Тошкент: Ўқитувчи, 1989. - 160 б.
3. Умаров Э.А. Новые данные об Орхонских надписях. - Ташкент: Фан, 2008. - 30 с.; Умаров Э.А. Урхун ёзуви. - Тошкент: Фан ва таълим полиграф,
4. 2013. - Б.12-14.; Умаров Э.А. Урхун алифбоси қандай тузилган? - Тошкент: Фан ва таълим полиграф, 2013. - 20 б.; Абдушукуров Б.Б. Қадимги туркий тил. - Тошкент: Навоий университети, 2019. - 130 б
5. Содиков Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. - Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институтининг кичик босмахонаси, 2004. - 144 б.
6. Раҳмонов Н., Содиков Қ. Ўзбек тили тарихи. - Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2009. - 224 б.
7. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics*, 32.
8. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The*





*Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

9. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

10. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

11. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

12. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

13. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

14. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

15. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*

16. Abdurazaqov, A., & Mirzamahmudova, N. T. (2021). Convergence of the method of straight lines for solving parabolic equations with applications of hydrodynamically unconnected formations. *Ministry Of Higher And Secondary Special Education Of The Republic Of Uzbekistan National University Of Uzbekistan Uzbekistan Academy Of Sciences Vi Romanovskiy Institute Of Mathematics, 32.*



17. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

18. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

19. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

20. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

21. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

22. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

23. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

24. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

25. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

26. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.

27. Кодиров, К., Тўхтасинов, Т., & Зайнололобидинова, Х. (2023). 0\*-АЛГЕБРА ОТНОСИТЕЛЬНО СУБАДДИТИВНЫХ МЕР. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 456-459.